

**“Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish,
qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon ho‘jaliklarining ulushini oshirish
chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-20-son, 23.11.2021-y.)
mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan
ANNOTATSIYA**

Qarorning maqsadi: aholining daromad topishga qaratilgan tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, aholiga agrar tarmoqda o‘z biznesini tashkil etishga ko‘maklashish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish va qishloq xo‘jaligini diversifikatsiyalash orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash.

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalari **“E-AUKSION”** elektron savdo platformasida ochiq elektron tanlov o‘tkazish orqali ijaraga beriladi (*Yer uchastkalarini Vazirlar Mahkamasi tomonidan ijaraga berish hollari bundan mustasno*).

Qaror bilan fermerlar va klasterlarning past hosilli paxta va g‘alladan qisqartirilgan **200 ming gektar ekin maydoni 2022-2025-yillarda zaxiraga qaytariladi.**

Zaxiraga qaytarilgan yerlar sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka uchun fuqarolarga **0,10 gektardan 1 gektargacha elektron tanlov orqali ijaraga beriladi.**

Ijaraga berishda o‘z tomorqasida meva-sabzavotchilik, poliz mahsulotlarini yetishtirish va uzumchilikda yaxshi natijalarga erishgan, ushbu sohalardan birida tayanch mutaxassislikka ega bo‘lgan fuqarolarga, **“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” da ro‘yxatda turgan ehtiyojmand oilalarga** alohida ustuvorlik beriladi.

100 mln dollar pul banklarga milliy valyutada 3 yil imtiyozli davr bilan 10 yilga 10 foiz stavkada joylashtiriladi.

Kreditlar dehqon va fermerlarga:

100 mln so‘mgacha **14% stavkada;**

kichik intensiv bog‘ va uzumchilikka 3 yilgacha imtiyozli davr bilan **7 yilgacha**, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka va sabzavotchilikka 6 oygacha imtiyozli davr bilan **2 yilgacha ajratiladi.**

Kreditlar yangi joriy etilayotgan **hokim yordamchilari yozma tavsiyasiga** asosan beriladi.